

№1(5)
2025



ÓZBEKISTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALÍ

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍŚÍ

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 1(5)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AĞZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, *professor*;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri máslahátshisi, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD)*;

BEGIS TEMIRBAEV – Qaraqalpaqstan Respublikası Mádeniyat ministri, *docent*;

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, *professor*;

OMONILLA RIZAEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, *professor*;

HIKMAT RAJABOV – *professor*;

ORAZALI TOSHMATOV – *professor*;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, *docent*,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, *professor*;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, *professor*;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, *professor*;

SAYYORA ĞAFUROVA – *professor*;

OYDIN ABDULLAEVA – *professor*;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, *professor*;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, *professor*;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), *professor*;

ALIMA PIRNIYAZOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc);

YUSUPOV QONÍSBAY – pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), *professor*;

UTEBAEV TAJIBAY - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), *professor*;

SEYTKASIMOV DAULETNAZAR - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc);

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), *docent*;

JAÑABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), *docent*;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redaksiya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Turan oypatı 29-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel:551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

BUYUK ALLOMALAR ABU ALI IBN SINO VA ABU NASR FAROBIYLARNING MUSIQIY MEROSI

Shermatov K.E.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Ma’lumki, Sharq mamlakatlaridan ko‘plab mutafakkir olimlar, o‘z sohasining yetuk mutaxassislari yetishib chiqqan. Ular ilm-fan rivojiga munosib hissa qo‘shishgan. Mazkur maqolada buyuk allomalar Abu ali ibn Sino va Abu Nasr Farobiylarning musiqa ilmiga doir qarashlari hamda ularning musiqiy merosi, ilmiy asarlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Sharq allomalari, musiqa, ilmiy asar, tibbiyot, musiqiy psixoterapiya.

Аннотация: Известно, что многие думающие ученые, зрелые специалисты своего дела выросли из стран Востока. Они внесли достойный вклад в развитие науки. В данной статье рассказывается о взглядах великих учёных Абу Али ибн Сины и Абу Насра Фараби на музыкальную науку, а также об их музыкальном наследии и научных трудах.

Ключевые слова: Востоковеды, музыка, научная работа, медицина, музыкальная психотерапия.

Abstract: It is known that many thoughtful scientists, mature specialists in their field grew up from Eastern countries. They made a worthy contribution to the development of science. This article describes the views of the great scientists Abu Ali ibn Sina and Abu Nasr Farabi on musical science, as well as their musical heritage and scientific works.

Keywords: Orientalists, music, scientific work, medicine, music psychotherapy.

Kirish: Musiqa insonning nozik hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini aks ettiruvchi san’at turi hisoblanadi. Uning mazmuni o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv va boshqalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shuningdek, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari masalan, qat’iyatlik, intiluvchanlik, o‘ychanlik, vazminlik va boshqalarni ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta’sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo‘lgan protsessual – muayyan jarayonli tabiati bilan bog‘liqdir. Musiqa asarlari mazmunida musiqali obrazlarning o‘zaro munosabatlari (taqqoslanish, to‘qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi.

Asosiy qism: Musiqaning mazmuni shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo‘lib, bunda ma’lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur’at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma’naviy-ma’rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko‘pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o‘zaro etik va estetik ta’sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg‘ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

Musiqani qalbi go‘zallikka ishtiyoqmand kishilargina sevadi, anglaydi. Musiqa tinglash, uni idrok etish bolalikdan tarbiyalanadi va singdirib boriladi. Musiqani barcha eshitadi, biroq uni hamma ham birday idrok eta olmaydi. Musiqani tinglash jarayonida idrok etish darajasi tinglovchining umumiy madaniyati va musiqiy tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Bitta musiqiy asarni tinglagan ikki kishi o‘z hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda uni turlicha tushunishi, baholashi, turli obrazlarni ko‘rish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, musiqa biz o‘ylagandan ko‘ra qudratliroq kuchga ega.

Unda bemorlarni davolash xususiyati ham bor. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak u ba’zida biror og‘riga, insonning joniga malham bo‘la oladi. Sog‘lomlashtirish maqsadida foydalaniladigan musiqa – musiqiy psixoterapiyada o‘rganiladi. Mazkur sohada hali ko‘p o‘rganishlar va izlanishlar olib borish talab etiladi, negaki, u ham tibbiyot, ham musiqa sohalari bo‘yicha jiddiy bilimga ega bo‘lishi taqozo etiladi.

Bunda bir necha asrlar avval yashab o‘tgan ajdodimiz buyuk mutafakkir olim, faylasuf, tabiatshunos, tabib, shu bilan birga ajoyib musiqa nazariyachisi Abu Ali Ibn Sino tadqiqotlarida bu sohadagi izlanishlarini ko‘rishimiz mumkin.

U 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida, hozirgi Isfana qishlog‘ida dunyoga kelgan. 5-10 yoshlarida maktabda ta’lim oldi. Maktabni bitirgach, ustoz Abu Abdullohdan mantiq, tibbiyot, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o‘rganadi. 16 yoshidan boshlab turli fanlar bo‘yicha Sharq va G‘arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqqil o‘rganadi. O‘rta Osiyo va Eronda yashagan, turli hukmdorlar paytida tabib va vazir bo‘lgan. Ibn Sino risolalari Sharq hamda G‘arbda bag‘oyat mashhur. “Tib qonunlari” nazariy va klinik meditsina entsiklopediyasi yunon, rum, hind hamda o‘rta osiyolik tabiblar nuqtai-nazari jamlanmasi bir necha asr davomida, hatto Yevropada ham zarur qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan.

Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo‘lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (967-997) davrida Buxoro tomoniga ko‘chib, Hurmaysan qishlog‘iga moliya amaldori etib tayinlanadi. U Afshona qishlog‘ida Sitora ismli qizga uylanib

ikki o'g'il farzand ko'radi. O'g'illarining kattasi Husayn (Ibn Sino), kenjasi Mahmud edi. Husayn 5 yoshga kirgach, Ibn Sinolar oilasi poytaxt – Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradilar. 10 yoshga yetmasdan Ibn Sino Qur'on va adab darslarini to'la o'zlashtiradi. Ayni vaqtda u hisob va aljabr (algebra) bilan ham shug'ullandi, arab tili va adabiyotini mukammal egalladi. Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozlari Abu Abdulloh Notiliy edi. U el orasida hakim va faylasuf sifatida mashhur bo'lgani uchun otasi Ibn Sinoni unga shogirdlikka berdi. Notiliyning qo'lida olim mantiq, handasa va falakiyot (astronomiya)ni o'rgandi va ba'zi falsafiy masalalarda ustozidan ham o'zib ketdi. Ibn Sinoning aql-zakovatini ko'rgan ustozlari otasiga uni ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullantirmaslikni tayinlaydi. Shundan so'ng ota o'g'liga ilm o'rganish va bilimlarini chuqurlashtirish uchun barcha sharoitlarni yaratib berdi. Abu Ali tinmay mutolaa qilib, turli ilm sohalarini o'zlashtirishga kirishdi. U musiqa, optika, kimyo, fiqh kabi fanlarni o'qidi. Xususan, tabobatni sevib o'rgandi va bu ilmda tez kamol topa boshladi.

Ibn Sino asarlari 450 dan ortiqdir. Shulardan 40 dan ortig'i tabobatga oid, 30 ga yaqini turli tabiiy fanlarga, 180 ta risolasi falsafa, mantiq, ruxshnoslik, geologiya, etika va ijtimoiy masalalarga, 4 tasi adabiyotga, 3 ta risolasi, 5 ta musiqiy ilmga bag'ishlangan. Lekin bizga bu asarlarning 242 ga yaqini yetib kelgan. Asarlar orasidagi 18 jildli "Kitob ash-shifo" asarini falsafa bilimlar qomusi desa bo'ladi.

Abu Ali Ibn Sino o'zining tibbiyotga oid o'lmas asarlarida musiqaaning hissiy ta'sir kuchiga katta baho bergan holda ruhiy xastaliklarni davolashda uni yuksak qadrlagan. Xususan, Ibn Sinoning "Qonuniy fit-tib" (Tib qonuni), "Kitabush-Shifo" (Shifo kitobi), "Risalatun fi-ilmiy musiqiy" (Musiqiy ilm haqida risola) va boshqa asarlarida musiqaaning hissiy ta'sir kuchiga katta baho bergan holda ruhiy hastaliklarni davolashda uni yuksak qadrlagan. Xususan, Ibn Sinoning "Qonuni fit-tib" (Tib qonuni) asarida bir necha o'rinda musiqiy asarlar ruhiy kasallarga "Shifo dasturi" sifatida tavsiya etiladi. Musiqaaning inson salomatligiga ta'sir etish imkoniyati, musiqani tinglash jarayonidagi chuqur hissiy kechinmalarining ijobiy ta'siri - tibbiyotda ham, musiqada ham izlanishlar olib borish uchun muhim asosdir.

Avitsenna, shuningdek, musiqa nazariyasiga oid asarlar ham yozgan bo'lib, ular ijodkorning ensiklopedik ishlarining bir qismidir: "Davo kitobi"da "Ilmda musiqiy to'plam", "Najot kitobi"da "Musiqa haqida kichik bayon", "Bilimlar kitobi"da musiqa bo'limi.

Nazariy nuqtai nazardan Ibn Sino O'rta asr an'analariga ko'ra musiqani matematik bilimlar toifasiga kiritgan. U musiqaga tovushlarni o'rganuvchi, ularning mutanosib jo'rliqi natijasida kuy hosil bo'luvchi fan deb qaragan. Pifagor

ta'limotidan kelib chiqqan holda, u musiqa sonlarga tegishli va ular bilan uzviy bog'liqdir, deb bilgan.

Ibn Sino tarixda birinchi bo'lib musiqaqa faqat matematik fan emas, balki jamiyatshunoslik, psixologiya, poetika, etika va fiziologiya nuqtai nazaridan ham qarab, musiqa tarixiga puxta ilmiy tayanchni asoslaydi.

Al Farobiy bilan birgalikda u musiqiy cholg'ular ilmiga asos soldi, keyinchalik, kechroq bo'lsada, Yevropada o'z rivojini topdi. U musiqiy cholg'ular turiga batafsil tasnif berdi va ularning tuzilishini tushuntirib o'tdi. "Bilimlar kitobi"ning oltinchi bo'limida, deyarli barcha musiqiy asboblarning ta'riflari bilan keltirilgan. Al Farobiy hamda Ibn Sinoning musiqiy cholg'ularni o'rganishga doir ishlari natijasida musiqa fanidagi maxsus fan bo'lib qoluvchi musiqiy asbobshunoslik faniga asos solingan.

Buyuk olim O'rta Osiyoda keng tarqalgan kamonli cholg'u bo'lmish g'ijjakni ham ixtiro qilgan.

Ibn Sino ilmiy merosini o'rganish ishlari yangi davrga kelib jadal tus oldi va natijada chet el hamda O'zbekistonda maxsus ilmiy yo'nalish – sinoshunoslik vujudga keldi. "Tib qonunlari"ning lotincha tarjimasi to'liq holda 40 marta nashr etildi. Uning ayrim qismlari nemis, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilindi, olimning falsafiy va boshqa sohalarga oid asarlari ham jahonning bir necha tillarida nashr etildi, uning ijodiga oid qator yirik tadqiqotlar yaratildi.

Dunyoning ko'plab kutubxonalarida Ibn Sino asarlarining qo'lyozmalari saqlanadi. Jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo'lyozmasi mavjud.

Yaqin va O'rta Sharqning yirik shaharlarida musiqa san'ati, cholg'ular va musiqa ijrochiligining gurkirab rivojlanishi XVI asrdayoq fanning mustaqil bo'lishi – musiqa ilmining asoschilaridan biri Sharqning ulug' olimi Abu Nasr Farobiy (870-950). Farobiy falsafa, mantiq, sotsiologiya, tibbiyot, matematika va musiqaqa ixtisoslashgan. Asarlarining aksariyati falsafa, mantiq, sotsiologiya va ensiklopediya yozish sohalarida edi.

Farobiy O'rta Osiyoda tug'ilib, birinchi ma'lumotni aynan shu go'shada oldi. Turli fanlarni o'rgandi, Samarqand, Buxoro va Shomda o'qib mavjud bo'lgan qariyb hamma fanlarda iz qoldirdi. U IX-X asr Sharq musiqa madaniyatining eng yirik namoyondasi sifatida zabardast bastakor hamda ud, chang, tanbur, g'ijjak nay kabi cholg'ularning mohir ijrochisi ham bo'lgan. Ajoyib musiqiy qobiliyati tufayli O'rta va Yaqin Sharqda yashovchi turli xalqlarning musiqa madaniyati bilan yaqindan tanish edi, kuy ijro etib odamlarga kuchli ta'sir berar, goho jo'shqin goho homush ahvolga solar, ba'zan esa uxlatardi. Uning shinavandalarini hayratda qoldirganligi to'g'risida rivoyatlar mavjud. Ilmda esa Farobiy olamshumul

ahamiyatga molik asarlar ijod etib musiqashunoslik tarixida soʻnmas iz qoldirdi. U musiqaga oid bir qator asarlar yaratdi. Farobiyning bizgacha yetib kelgan asari bu sharq musiqasi haqidagi “Kitob al-musiqiy al-kabir” hisoblanadi. U 1967-yilda Qohirada nashr etilib, 1208 sahifadan iborat. Bu kitobda Olim yashagan zamon yaqin va Oʻrta Sharq musiqa madaniyatining qarib koʻrinishlari berilgan. Farobiyning yana ikkita asari ancha yirik. Bular “Maqola fi isha al-ulum” asaridan “Musiqqa ilmi haqida” va “Fanlar kelib chiqishi haqida” asaridan “Musiqqa ilmining kelib chiqishi omillarini bilish toʻgʻrisida” boʻlimlari mavjud. Ikkala asar ham musiqa ilmi rivojida katta ahamiyatga ega. Alloma oʻzidan oldin yashab oʻtgan mutafakkirlarning musiqiy qarashlarini qayta ishlab chiqdi. Sharq mamlakatlarini musiqa madaniyatini oʻrganib umumlashtirdi. Farobiy oʻzining musiqaga bagʻishlangan asarlarida musiqa nazariyasining muhim masalalari bilan birga musiqa sanʼatining inson va jamiyat hayotidagi oʻrni, musiqaning kelib chiqishi, musiqaning xissiy idroki, uning taʼsir kuchi, musiqiy estetik tarbiya haqidagi fikrlarni ham ilgari suradi.

Olim 941-yildan Damashqda muhtojlikda kun kechira boshlaydi. Shunga qaramay, ilm bilan shugʻullanadi, falsafa va boshqa fanlar sohasida tadqiqot ishlari olib boradi. U Aleppo (Halab) hokimi Hamdamid (hukmronlik yillari 943-967) iltifoti va hurmatiga erishadi. U olimlarning homiysi sifatida tanilgan edi. Hokim Farobiyning oʻz saroyiga taklif etadi, lekin, u saroyga bormasdan, erkin hayot kechirishni maʼqul koʻradi. Shunga qaramasdan, allomaning Halabdagi hayoti sermahsul boʻldi, bu yerda oʻzining koʻplab asarlarini yozdi. Farobiy 949-950-yillarda Misrda, soʻngra Damashqda yashaydi va shu yerda umrining oxirgi kunlarini oʻtkazadi. U Damashqdagi “Bob assagʻir” qabristoniga dafn etilgan.

Mavjud maʼlumotlarga qaraganda, Farobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Lekin ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Shunga qaramay, mavjud risolalarining oʻziyoq uning buyuk olim ekanligidan dalolat beradi.

Farobiyning asosiy asarlari: “Falsafani oʻrganishdan oldin nimani bilish kerakligi toʻgʻrisida”, “Falsafiy savollar va ularga javoblar”, “Ensiklopediyadan mantiq boʻlimining bir qismi”, “Taliqot” (sharhlar), “Inson aʼzolari haqida risola”, “Boʻshliq haqida maqola”, “Donolik asoslari”, “Falsafaning maʼnosi va kelib chiqishi”, “Hayvon aʼzolari, funksiyasi va potensiyasi”, “Mantiq toʻgʻrisidagi risolaga muqaddima”, “Mantiq ilmiga kirish”, “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Musiqqa haqida katta kitob”, “Masalalar mohiyati”, “Buyuk kishilarning naqllari”, “Thso alulum”, “Hikmat maʼnolari”, “Aql toʻgʻrisida”, “Ilmlar va sanʼatlar fazilati”, “Qonunlar haqida kitob”, “Falak harakatining doimiyligi haqida”, “Sheʼr va qofiyalar haqida soʻz”, “Ritorika haqida kitob”, “Hajm va miqdor haqida soʻz”, “Musiqqa haqida soʻz”, “Fizika usullari haqida kitob”, “Fazilatli xulqlar”, “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida” va

boshqa Farobiy asarlari XX asrning 70-80-yillarida Toshkent va Olma-otada “Falsafiy risolalar”, “Mantiqiy risolalar”, “Matematik risolalar”, “Ijtimoiy-axloqiy risolalar”, “Tadqiqotlar va tarjimalar” nomlari ostida rus tilida nashr etilgan.

Farobiy ilk oʻrta asrda, Sharq Uygʻonish davrida ijod etdi. Bu davr ishlab chiqaruvchi kuchlarning oʻsishi, hunarmandchilik, irrigatsiya inshootlarining yuksalishi, yangi shaharlarning bunyod etilishi, madaniy va maʼnaviy hayotning ravnaq topishi bilan ajralib turadi. IX-X asrlarda ichki va tashqi savdo kuchaydi, ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Vizantiya, Afrika mamlakatlari bilan aloqa yoʻlga qoʻyildi. Bu davr qarama-qarshilik va adovatlardan holi emas edi. Farobiyning falsafiy qarashlarida oʻsha davrning yutuq va kamchiliklari, murakkab va ziddiyatli jihatlari oʻz ifodasini topdi.

Olimlarning fikricha, musiqa insonga orom, koʻngilxushlik bera olishi hamda insonga yuksak axloq goʻzallik tuygʻularini uygʻotuvchi va hatto inson sihat-salomatligiga ham ijobiy taʼsir taʼsir koʻrsatuvchi vosita sifatida, jamiyatda maʼnaviyatni yuksalishida muhim omil boʻladi. Farobiy musiqaning kelib chiqishiga baho berar ekan, oldin musiqa amaliyoti, keyin musiqa ilmi kelib chiqqan deb hisoblaydi va uning koʻngil ochar vosita maʼnaviy tarbiya vositasi ekanligini taʼkidlaydi. Bu musiqaning sanʼat sifatida yashashi uchun birinchi omilidir. Shu bois, musiqaning taʼsir kuchi vositalarini qidirish va takomillashtirish Farobiy uchun musiqa ilmining muhim vazifasi boʻlib xizmat qilgan deb aytish mumkin. Nazariy ilm musiqaning asoslari, yani tarkibiy qonunlarini tashkil qiladi. Alloma ularni oʻrganish uslublari ustida nazariy yaniy musiqa amaliy boʻlsa musiqa tinglanadi va baho beriladi.

Farobiyning dunyoqarashi, uning jamiyat va axloq toʻgʻrisida yaratgan yaxlit taʼlimoti ilk oʻrta asrlar va keyingi davrlarda ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy fikr rivojida muhim ahamiyatga ega boʻldi. Uning qarashlari Sharq mamlakatlariga keng yoyildi. Oʻrta asr mutafakkirlari Ibn Xallikon, Ibn alKiftiy, Ibn Abi Usabiʼa, Bayhaqiy, Ibn Sino, Ibn Boja, Umar Xayyom, Beruniy, Ibn Rushd, Ibn Xaldun va boshqa taʼlimotini chuqur oʻrganib, uni yangi gʻoyalar bilan boyitganlar. Buyuk mutafakkir va shoirlardan Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Dovoniy Farobiyning ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy taʼlimotidan bahramand boʻlganlar.

Farobiy ilgari surgan fikrlar XVI-XX asrlarda ham musulmon mamlakatlari olimlari tomonidan katta qiziqish bilan oʻrganildi. Mutafakkir qoldirgan meros faqat Sharq mamlakatlarida emas, balki Yevropada ham tarqaldi va ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotida sezilarli taʼsir koʻrsatdi.

Farobiyning fikricha, har qanday ilmda insonning kamol topmogʻi uchun uchta holatga murojaat qilinadi: Uning asoslarini puxta egallash asoslaridan shu fan asoslaridan kerakli natijalar chiqara bilish, mavjud xatoliklarni topish hamda

tuzata olish. Farobiy musiqa ilmini chuqur bilish bilan bir qatorda ularni insonga ta'sir kuchini ham yaxshi anglab yetgan va o'rgangan olimdir. U kuylarni ijro etish yordamida insonlardagi ruhiy o'zgarishlar hissiyotlarning vujudga kelishi, tuyg'ularining qay darajada namoyon bo'lishini kuzatib, ularni avvaldan aniq ayta olgan. "Musiqa inson ongi va ruhiyatini boshqara oladi" deya xulosa chiqargan. Inson ruhiyatini tarbiyalashda musiqaning o'rnini yuksak deb bilgan. Zotan, tarbiya hamisha inson hayotini go'zallashtirish uchun xizmat qilib kelgan anashu go'zallikka, komillikka erishishda esa musiqaning ahamiyati cheksizdir.

Xulosa qilib aytganda Sharqning buyuk olimlari Abu Ali Ibn Sino va Abu Nasr al Farobiylarning ilmiy asarlari, jumladan, ular qoldirgan boy musiqiy meros hali uzoq yillar davomida ilm-fan rivoji hamda insoniyatga sog'lik va tarbiya manbai bo'lib qoladi. Ushbu ilmiy meroslar o'rganilgani sayin ularning yangi qirralari ochilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'aniyeva I – "Sharq mamlakatlari musiqa tarixi" - Toshkent 2010.
2. Abdullayev R – "O'zbek musiqasi tarixidan" - Toshkent 1993.
3. Matyoqubov O - Farobiyning "Sharq musiqasi haqida" - Toshkent 1986.
4. Razzoqov N, Mirzayev T, Sobirov O, Imomov K. – "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" - Toshkent 1980-1981.
5. "O'zbek xalq ijodiy yodgorliklari" - 1-6-tomlari Toshkent 2015.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Ходжаметова Г.И. КАРАКАЛПАКСКАЯ ТРАДИЦИОННАЯ МУЗЫКА КАК ПЕРВООСНОВА СОЧИНЕНИЙ ФОРТЕПИАННОЙ МУЗЫКИ	3
2	Charshemov J. P.XINDEMITNING “LUDUS TONALIS” TSIKLINING GARMANIK TAXLILI	10
3	Мухаммедниязов К.Т. ИЗУЧЕНИИ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОСВЯЗИ МУЗЫКИ И СЛОВА НА ПРИМЕРЕ «ПОЭТИКИ» АРИСТОТЕЛЯ	16
4	Abatbaeva R.O. XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QORAQALPOQ MUSIQASI	22
5	Саидхонов А.С. ДВЕНАДЦАТЬ ГРАНИ СОВЕРШЕНСТВА (На примере трансцендентные этюды Ференца Листа)	29
6	Жумабаев А.Е., Муратбаева А.А. МУЗЫКАЛЬНАЯ ФОЛЬКЛОРИСТИКА	42
7	Saburova U.M. LYUDVIG BETHOVEN IJODIDA VARIATION SHAKL	48

KÓRKEM ÓNER

8	Allanbaev R.O. QORAQALPOQ KOMPOZITORLARI ASARLARIDA MUSIQIY DRAMALAR	53
9	Abdullaev F., Muratbaev A. QARAQALPAQSTANDA DEMLI ORKESTRINIŇ DÚZILIWI HÁM ONIŇ RAWAJLANIŇW BASQIŠHLARI	59
10	Qurbanazarov P. DAMLI CHOLG‘ULAR VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	65
11	Shermatov K.E. BUYUK ALLOMALAR ABU ALI IBN SINO VA ABU NASR FAROBIYLARNING MUSIQIY MEROSI	73
12	Abdullaeva U., Razatdinova A. KOMPOZITOR KEŇESBAY ABDULLAEVTIŇ QARAQALPAQ XALIŇ NAMALARINIŇ RAWAJLANIŇWINA QOSQAN ÚLESİ	80
13	Александрова О.А. ПАМЯТИ ОПЕРНОГО ПЕВЦА КУРКМАСА МУХИТДИНОВА	86
14	Allaniyazov B. SKRIPKANING TARIXIY RIVOJLANISH JARAYONI	91
15	Erejepov A.A. QARAQALPAQ BAQSISHILIQ MEKTEPLERINIŇ ATQARIWSHILIQ KÓRKEM ÓNERI ÓZGESHELIKLERI HAQQINDA	98

16	Kamalova G.M. HIKMAT RAJABOVTIŇ DÓRETIWSHILIGINE TÁN ÓZGESHELIKLERI	104
17	Dosimbetov B.X. CHOLG‘U IJROCHISINI KONSERT VA SAHNA NAMOIYISHIGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	113
18	Zuxurov M.M. DIRIJYORLIQTA QOL HÁREKETLERINIŇ DURIS ATQARILIWI HÁM OLARDI RAWAJLANDIRIW	120
19	Embergenova G.A., Yo‘ldoshev L.E. XOR ASARLARINI TAHLIL QILISH OMILLARI	130
20	Paxratdinova L.Sh. SKRIPKA SAZ ÁSBABÍ TARIYXÍ	136
21	Karimova I.I. SKRIPKA SAZ ÁSBABÍNA SHÍĠARMA JAZĠAN DÓRETIWSHILER HÁM PROFESSIONAL ATQARÍWSHÍLAR ÁHMIYETI	145
22	Rejepov Sh.B. ĠAYÍP DEMESINOVTIŇ FORTEPIANO DÓRETIWSHILIGI (“Prelyudiya”lari misalında)	153
23	Mamutov P.A. TEATRDÍŇ TARIYXÍY QÁLIPLESIW HÁM DRAMATURGIYANÍŇ RAWAJLANIW BASQÍSHLARÍ	159

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

24	Umarova V.A. MUSIQA-IJROCHILARNI TANLOVLARGA TAYYORLASHDA USTOZ VA OILANING ROLI	164
25	Tnibaev P.K. DAMLI CHOLG‘ULARNI TALABALARGA O‘RGATISH: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA METODLAR	169
26	Элмуродова Г.А. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКИ ПО ПРЕДМЕТУ ФОРТЕПИАНО (НА ПРИМЕРЕ ЭТЮДОВ К. ЧЕРНИ)	173
27	Iseev R. FORTEPIANO ATQARÍWSHÍLÍĠÍŇDA POLIFONIYA JANRÍŇÍŇ AHMIYETI. POLIFONIYALÍQ SHÍĠARMALAR USTINDE JUMÍS ALÍP BARÍW	180

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

28	Jabbarov I.A., Bazarbaeva N.I. MOBILE APPLICATIONS AS A CONTEMPORARY INSTRUMENT FOR ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING	187
29	Marziyaev J.K. JOQARÍ OQÍW ORÍNLARÍŇDA JURNALIST QÁNIGELERDI TAYARLAW	194
30	Kalimbetova S.A. O‘ZBEK JADID DRAMATURGIYASI VA TEATRI (“Padarkush” va “To‘y” dramalari misolida)	201

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal